



TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH YO'LLARI VA OMILLARI TAHLILI

Muydinov Baxodirjon Numanovich

University of economics and pedagogy NOTM

"Iqtisodiyot" kafedrası v.b. professori., i.f.n.

Email:boxodirmuydinov@gmail.com

Annotatsiya: Maqola tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning asosiy yo'llari va unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda aholi daromadlarini shakllantirishda tadbirkorlik sub'ektlarining o'rni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning aholi bandligini ta'minlash hamda daromad manbalarini kengaytirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining tadbirkorlik salohiyatini oshirish, moliyaviy va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining aholi daromadlariga ta'siri o'rganilgan. Maqolada tadbirkorlik muhitini takomillashtirish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish orqali aholi daromadlarini barqaror oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik faoliyati, aholi daromadlari, daromadlarni oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, aholi bandligi, ishsizlikni kamaytirish, yangi ish o'rinlari, tadbirkorlik salohiyati, biznes muhiti, tadbirkorlik sub'ektlari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, investitsiyalar, kreditlash, aholi turmush darajasi, daromad manbalar, iqtisodiy faollik, tadbirkorlik infratuzilmasi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.

Abstract: This article analyzes the main ways to increase household incomes through the development of entrepreneurial activity and the factors influencing it. It examines the role of economic entities in generating household incomes and the importance of developing small businesses and private entrepreneurship to ensure employment and expand income sources. It also examines the impact of mechanisms for stimulating entrepreneurial activity, creating new jobs, increasing entrepreneurial potential, and providing financial and infrastructural support on household incomes. The article develops scientific and practical proposals and recommendations for improving the business environment, effectively leveraging existing opportunities, and sustainably increasing household incomes through the further development of entrepreneurial activity.

Keywords: Business activity, population income, income growth, entrepreneurship development, small business, private entrepreneurship, employment, unemployment reduction, new jobs, entrepreneurial potential, business environment, business structures, financial support, investment, lending, standard of living, sources of income, economic activity, entrepreneurial infrastructure, government support.

Абстрактный: Статья посвящена анализу основных путей повышения доходов населения за счет развития предпринимательской деятельности и факторов, влияющих на нее. Рассматривается роль хозяйствующих субъектов в формировании доходов населения, важность развития малого бизнеса и частного предпринимательства для обеспечения занятости населения и расширения источников дохода. Также изучается влияние механизмов стимулирования предпринимательской активности, создания новых рабочих мест, повышения предпринимательского потенциала населения, а также финансовой и инфраструктурной поддержки на доходы населения. В статье разработаны научно-практические предложения и рекомендации по улучшению деловой среды, эффективному использованию существующих возможностей и устойчивому повышению доходов населения за счет дальнейшего развития предпринимательской деятельности.

Ключевые слова: Деловая активность, доходы населения, рост доходов, развитие предпринимательства, малый бизнес, частное предпринимательство, занятость населения, снижение безработицы, новые рабочие места, предпринимательский потенциал, деловая среда, бизнес-структуры, финансовая поддержка, инвестиции, кредитование, уровень жизни населения, источники дохода, экономическая активность, предпринимательская инфраструктура, государственная поддержка.

Kirish (Введение/Introduction).

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda aholi daromadlarini oshirish, ularning turmush darajasi va farovonligini yuksaltirishga qaratilgan keng ko'lamli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar amalga oshirildi. Bozor munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi natijasida aholi daromadlarining hajmi bilan bir qatorda ularning tarkibi ham sifat jihatdan o'zgarib bordi. Xususan, mehnatga haq to'lash, ijtimoiy transfertlar bilan bir qatorda tadbirkorlik faoliyati, mulkdan olinadigan daromadlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini realizatsiya qilish va boshqa bozor mexanizmlari asosida shakllanadigan daromad manbalari aholi yalpi daromadlarida muhim o'rin egallay boshladi.

Aholi daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlashda tadbirkorlik faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tadbirkorlik nafaqat aholining shaxsiy daromad manbasini kengaytiradi, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat resurslaridan samarali foydalanish, ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan ta'minlash hamda mahalliy iqtisodiy

faollikni oshirish orqali mamlakat iqtisodiy o'sishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlarining shakllanishi turli manbalar hisobidan amalga oshadi. Bularga mehnatga haq to'lash, ijtimoiy transfertlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan olinadigan daromadlar, mulkdan olinadigan daromadlar, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar hamda boshqa pul va natural daromadlar kiradi. Ushbu tarkibda tadbirkorlik daromadlarining ortib borishi aholining iqtisodiy faolligini kuchaytirish va ularning mustaqil daromad manbalarini shakllantirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Aholi daromadlarini oshirishda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish muhim iqtisodiy omillardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida aholining umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyati, tadbirkorlik va mustaqil ravishda band bo'lishdan olinadigan daromadlarning ahamiyati

ortib bormoqda. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlarida aholining umumiy daromadlari dinamikasi hamda uning asosiy manbalari batafsil yoritilgan bo'lib, mazkur ko'rsatkichlar aholi farovonligini baholashning muhim mezonini sifatida qaraladi [1].

Mustaqil ravishda band bo'lishdan olinadigan daromadlarning kengayishi aholining mehnat bozoridagi faolligini oshirish va qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirish imkonini beradi. Ushbu jarayon, ayniqsa, kichik biznes va o'zini o'zi band qilish shakllarining rivojlanishi bilan bevosita bog'liq [2]. Shu nuqtayi nazardan, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratish, balki uy xo'jaliklari daromadlarini diversifikatsiya qilishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston hududlarida aholining daromadlari va tadbirkorlik faolligi o'rtasidagi bog'liqlikni statistik ma'lumotlar asosida baholash imkoniyati mavjud. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan ko'rsatkichlar tadbirkorlikning aholi daromadlari shakllanishidagi o'rnini aniqlash, hududlar o'rtasidagi tafovutlarni baholash va mavjud tendensiyalarni aniqlash imkonini beradi [3].

Jahon bankining tadqiqotlarida ham iqtisodiy o'sishning yangi bosqichiga o'tishda xususiy sektor, tadbirkorlik va mehnat unumdorligini oshirish muhim omillar sifatida ko'rsatiladi. Ayniqsa, o'rta daromadli mamlakatlarda iqtisodiy faollikni kengaytirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va yuqori unumdorlikka ega bizneslarni rivojlantirish aholi daromadlarini oshirishning uzoq muddatli omillari sifatida baholanadi [4].

Kichik va o'rta biznesning rivojlanishi aholining iqtisodiy faolligini kuchaytirish orqali bandlikni kengaytiradi. Shu sababli tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash, biznesni ro'yxatdan o'tkazish va yuritish xarajatlarini kamaytirish aholi daromadlarini oshirish siyosatining muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi [5].

Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishida inson kapitali ham muhim o'rin tutadi. Tadbirkorlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish biznes samaradorligini oshiradi. Natijada tadbirkorlikdan olinadigan daromadlarning barqarorligi va o'sish imkoniyatlari kengayadi [6].

Shuningdek, tadbirkorlik muhitining sifati aholining iqtisodiy faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy himoya, moliyaviy resurslardan foydalanish, infratuzilma va bozor imkoniyatlarining mavjudligi kichik biznes subyektlarining rivojlanish sur'atlarini belgilovchi asosiy institutsional omillar hisoblanadi [7].

Raqamlashtirishning rivojlanishi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Elektron savdo, raqamli to'lovlar va onlayn xizmatlarning kengayishi kichik tadbirkorlarning bozorga kirishini osonlashtirib, qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda [8]. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi tadbirkorlik faoliyatida hududiy va texnologik cheklavlarni kamaytirish imkonini beradi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy va statistik manbalar tahlili tadbirkorlik faoliyati bilan aholi daromadlari o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Biroq ushbu bog'liqlikni O'zbekiston sharoitida hududlar, tadbirkorlik shakllari, bandlik va daromad manbalari kesimida kompleks baholash zarur. Shu sababli tadbirkorlikni rivojlantirishning aholining umumiy daromadlariga ta'sirini statistik va ekonometrik usullar asosida aniqlash mazkur tadqiqotning muhim yo'nalishini tashkil etadi [9].

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Tadqiqotda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning asosiy yo'llari va omillarini aniqlash uchun statistik, taqqoslash, guruhlash, dinamik tahlil va ekonometrik tahlil usullaridan foydalanildi. Aholining umumiy daromadlari, tadbirkorlik va mustaqil bandlikdan olinadigan daromadlar dinamikasi O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida tahlil qilindi [1–3].

Tadqiqotda aholi daromadlarining o'sish sur'atlari, daromad manbalari tarkibi va ularning vaqt bo'yicha o'zgarishi **dinamik qatorlar**

usuli yordamida baholandi. Tadbirkorlik faoliyatining aholi daromadlariga ta'sirini aniqlash maqsadida quyidagi umumiy ekonometrik bog'lanishdan foydalanish mumkin:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \varepsilon, Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \varepsilon$$

bu yerda: Y – aholi jon boshiga umumiy daromad; X_1 – tadbirkorlik subyektlari soni; X_2 – kichik biznesda band bo'lganlar soni; X_3 – tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar; $\beta_0, \beta_1, \beta_2, \beta_3$ – model parametrlari; ε – tasodifiy xatolik.

Mazkur yondashuv orqali tadbirkorlik subyektlari soni va tadbirkorlikdan olinadigan daromadlarning aholi umumiy daromadlariga ta'sir darajasi baholanadi. Shuningdek, hududlar kesimida ko'rsatkichlarni taqqoslash orqali tadbirkorlik faoliyati va aholi daromadlari o'rtasidagi hududiy tafovutlar aniqlanadi.

1-jadval

Aholi daromadlarini o'sish suratlari yillar kesimida [3]

T/r	Ko'rsatkich	Yillar			
		2022	2023	2024	2025
1.	Aholi umumiy daromadlari, trln so'm	667,4	779,1	954,3	1 134,3
2.	Umumiy daromadlarning o'sish sur'ati, %	119,7	116,9	122,2	119,8
3.	Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar ulushi, %	36,4	36,8	34,7	34,0
4.	Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning o'sish sur'ati, %	109,8	118,1	115,6	116,2

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2022–2025 yillarda mustaqil ravishda band bo'lishdan olinadigan daromadlarning aholi umumiy daromadlaridagi ulushi 36,4 foizdan 34,0 foizgacha pasaygan bo'lsada, mazkur daromadlarning nominal hajmi va aholi daromadlarini shakllantirishdagi iqtisodiy ahamiyati saqlanib qolgan. Ulushning nisbatan pasayishi aholi umumiy daromadlarining boshqa manbalari, jumladan mehnat faoliyatidan olinadigan daromadlar va ijtimoiy transfertlarning ham o'sishi bilan bog'liq.

Xususan, mehnat faoliyatidan olinadigan daromadlarning aholi umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi 2021 yildagi 67,0 foizdan 2022 yilda 63,4 foizga, 2023 yilda 63,8 foizga, 2024 yilda 60,9 foizga va 2025 yilda 60,4 foizga o'zgargan. Bu holat aholi daromadlari tarkibida mehnatdan tashqari daromad manbalarining, jumladan mustaqil ravishda band bo'lish va tadbirkorlikka yaqin faoliyat turlarining ahamiyati saqlanayotganini ko'rsatadi.

Milliy statistika qo'mitasining eng so'nggi ma'lumotlariga ko'ra, 2026 yilning yanvar–iyun oylarida aholi umumiy daromadlari 618,35 trln so'mni tashkil etgan. 2025 yilning shu davrida bu ko'rsatkich 530,40 trln so'm bo'lgan. Demak, 2026 yil yanvar–iyun oylarida aholi umumiy daromadlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan qariyb 16,6 foizga oshgan.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Umuman olganda, 2022–2026 yillardagi statistik tendensiyalar aholi daromadlari hajmining barqaror o'sib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, mustaqil ravishda band bo'lish va tadbirkorlik faoliyati orqali daromad olish imkoniyatlarining kengayishi aholining iqtisodiy faolligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va oilaviy daromadlarni diversifikatsiya qilishning muhim omili bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, aholining tadbirkorlik ko'nikmalarini oshirish, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish aholi daromadlarini oshirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatining aholi daromadlarini oshirishdagi ahamiyati, avvalo, uning mustaqil daromad manbasini yaratishi bilan belgilanadi. Ish haqi asosan mehnat resurslarining ish beruvchi bilan munosabati natijasida shakllansa, tadbirkorlik daromadi iqtisodiy tashabbus, kapital, bilim, tajriba va bozor talabini to'g'ri baholash asosida vujudga keladi. Shu sababli tadbirkorlikni rivojlantirish aholida iqtisodiy mustaqillik va moliyaviy barqarorlikni kuchaytirishning muhim omili hisoblanadi.

Aholi daromadlarining tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq ravishda o'sishi bir vaqtning o'zida bir nechta iqtisodiy vazifani hal etish imkonini beradi. Birinchidan, tadbirkorlik sub'ektlarining ko'payishi aholi bandligini ta'minlaydi va ishsizlik darajasini kamaytirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, yangi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sub'ektlarining tashkil etilishi aholining qo'shimcha daromad manbalarini shakllantiradi. Uchinchidan, tadbirkorlik faoliyatining kengayishi raqobatni kuchaytiradi, tovar va xizmatlar sifatini oshiradi hamda ichki bozorning rivojlanishiga turtki beradi. To'rtinchidan, tadbirkorlikdan olinadigan daromadlarning o'sishi aholining jamg'arish imkoniyatlarini kengaytiradi va ularning investitsion faolligini oshiradi.

Aholi daromadlaridagi tafovutlarning shakllanishi ham tadbirkorlik faoliyati bilan uzviy bog'liq. Bozor iqtisodiyotida daromadlar tengsizligi ma'lum darajada tabiiy iqtisodiy hodisa bo'lib, u kishilarning qobiliyati, ma'lumoti, malakasi, mehnat unumdorligi, mulkiy holati, tadbirkorlik qobiliyati va tavakkalchilik darajasidagi farqlar natijasida yuzaga keladi. Tadbirkorlikda yuqori daromad olish imkoniyati, odatda, yuqori darajadagi iqtisodiy faollik, innovatsion yondashuv, bozor talabini oldindan baholash va tavakkalchilikni o'z zimmasiga olish bilan bog'liq bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, aholi daromadlarini oshirish siyosatida tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish bilan birga, aholi o'rtasida iqtisodiy imkoniyatlar tengligini ta'minlash ham muhim hisoblanadi. Buning uchun tadbirkorlik sub'ektlariga moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, kasbiy va biznes ko'nikmalarini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va bozorlarga chiqish imkoniyatlarini yaxshilash zarur.

Daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni baholashda Jini koeffitsienti muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Jini koeffitsienti — aholi yoki uy xo'jaliklari o'rtasida daromadlar taqsimotining tengsizlik darajasini miqdoriy jihatdan ifodalovchi iqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. U italiyalik iqtisodchi va statistik Korrado Jini (1884–1965) tomonidan ishlab chiqilgan.

Jini koeffitsienti, odatda, **0 dan 1 gacha** bo'lgan qiymatni qabul qiladi:

0 - daromadlarning mutlaq teng taqsimlanganligini anglatadi, ya'ni barcha aholi bir xil miqdorda daromad oladi;

1 - mutlaq tengsizlik holatini ifodalaydi, ya'ni jami daromadning deyarli barchasi bitta shaxs yoki guruh hissasiga to'g'ri keladi.

Shuning uchun Jini koeffitsienti qanchalik yuqori bo'lsa, aholi daromadlari o'rtasidagi tafovut shunchalik katta, koeffitsient qanchalik past bo'lsa, daromadlar taqsimoti shunchalik teng hisoblanadi[4].

Iqtisodiy tahlilda Jini koeffitsienti aholi daromadlarining taqsimlanishidagi tengsizlikni baholash, ijtimoiy siyosat samaradorligini aniqlash va turli davrlar yoki mamlakatlar o'rtasida daromadlar differentsiatsiyasini taqqoslashda keng qo'llaniladi.

Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi aholi daromadlarini oshirish bilan birga, turli aholi guruhlari o'rtasidagi daromadlar tafovutiga ham ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli tadbirkorlik orqali daromadlarni ko'paytirish natijalarini nafaqat aholi umumiy daromadlarining o'sishi, balki daromadlar taqsimotidagi tengsizlikning o'zgarishi nuqtai nazaridan ham baholash mumkin.

U aholi daromadlarining qanday darajada teng yoki noteng taqsimlanganligini ifodalaydi. Jini koeffitsienti 0 ga yaqinlashgan sari daromadlar taqsimotida tenglik darajasi yuqori, 1 ga yaqinlashgan sari esa tengsizlik darajasi yuqori bo'ladi. Aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan tadbirkorlik siyosati samarali bo'lishi uchun nafaqat o'rtacha daromadlarni ko'paytirish, balki aholining turli qatlamlari uchun daromad olish imkoniyatlarini kengaytirishga ham xizmat qilishi lozim.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish aholi daromadlarini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Kichik biznesning o'ziga xos xususiyati shundaki, u nisbatan kam miqdordagi kapital bilan faoliyatni boshlash, bozor talablariga tez moslashish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholining iqtisodiy faol qatlamlarini ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish imkonini beradi.

Ayniqsa, hududlarda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish aholi daromadlarini oshirishda katta salohiyatga ega. Qishloq joylarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash, hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish, savdo, turizm va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirish orqali aholining mavjud resurslaridan samarali foydalanish mumkin. Bu esa qishloq aholisining faqat natural daromadlarga bog'liqligini kamaytirib, pul daromadlarining o'sishiga olib keladi.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni shartli ravishda ichki va tashqi omillarga ajratish mumkin. Ichki omillarga tadbirkorning bilim va malakasi, boshqaruv qobiliyati, mehnat unumdorligi, innovatsion salohiyati, moliyaviy imkoniyatlari va tavakkalchilikka tayyorligi kiradi. Tashqi omillarga esa biznes muhiti, soliq siyosati, kredit resurslaridan foydalanish imkoniyati, bozor infratuzilmasi, raqobat muhiti, davlat tomonidan berilayotgan imtiyoz va preferensiyalar, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi hamda iste'mol talabining o'zgarishi kiradi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning eng harakatchan sektorlaridan biri hisoblanadi. Uning afzalligi, avvalo, ishlab chiqarishni bozor talabiga mos ravishda tez o'zgartirish, mahsulot va xizmatlar turini yangilash, yangi texnologiyalarni joriy etish va aholi bandligini ta'minlash imkoniyati bilan namoyon bo'ladi. Shu sababli tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash nafaqat tadbirkorlarning daromadlarini, balki ular bilan bog'liq bo'lgan yollanma xodimlar, xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlar va boshqa iqtisodiy ishtirokchilarning daromadlarini ham oshiradi.

Aholi daromadlarini tadbirkorlik orqali oshirishning yana bir muhim yo'nalishi - xotin-qizlar va yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishdir. Mehnat bozoriga yangi ishtirokchilarning kirib kelishi, ularning zamonaviy kasblar va biznes ko'nikmalarini egallashi hamda o'z biznesini tashkil etishi aholi daromadlarining umumiy hajmini oshirish bilan birga, oilaviy daromadlar manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ham tadbirkorlik orqali aholi daromadlarini oshirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Elektron tijorat, onlayn xizmatlar, raqamli marketing, frilans, masofaviy xizmat ko'rsatish va raqamli platformalardan foydalanish aholi uchun an'anaviy biznes modellari nisbatan kamroq xarajat bilan daromad olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bois tadbirkorlikni rivojlantirish siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri aholining raqamli va moliyaviy savodxonligini oshirishdan iborat bo'lishi lozim.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning asosiy yo'llarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

- aholining tadbirkorlik va moliyaviy savodxonligini oshirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- imtiyozli kreditlash va mikromoliyalash mexanizmlarini takomillashtirish;
- tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun zarur infratuzilmani rivojlantirish;
- xotin-qizlar va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash;
- qishloq hududlarida oilaviy tadbirkorlik va xizmat ko'rsatish sohalari kengaytirish;
- aholi tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga chiqarish imkoniyatlarini oshirish;
- raqamli texnologiyalar va elektron tijoratdan foydalanishni kengaytirish;
- tadbirkorlik sub'ektlarining innovatsion faolligini rag'batlantirish;
- soliq va ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish;
- yangi ish o'rinlari yaratayotgan tadbirkorlik sub'ektlarini rag'batlantirish;

○ aholi daromadlari va tadbirkorlik faoliyati o'rtasidagi hududiy tafovutlarni kamaytirish.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Shunday qilib, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish aholi daromadlarini oshirishning eng muhim va barqaror mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Tadbirkorlikning kengayishi yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining iqtisodiy faolligini oshirish, oilaviy daromadlarni diversifikatsiya qilish, raqobat muhitini kuchaytirish va ichki bozorni tovar hamda xizmatlar bilan ta'minlash orqali iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Binobarin, aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatda tadbirkorlik faoliyatini faqat daromad manbai sifatida emas,

balki aholining iqtisodiy mustaqilligini ta'minlovchi, bandlikni oshiruvchi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi muhim institut sifatida baholash maqsadga muvofiq. Buning uchun tadbirkorlik sub'ektlariga qulay biznes muhitini yaratish, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, inson kapitalini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va bozor infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Natijada aholi daromadlarining barqaror o'sishi, o'rta daromadli qatlamning kengayishi, bandlik darajasining oshishi va aholi turmush farovonligining yuksalishi uchun mustahkam iqtisodiy zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2025 yil yanvar–dekabr. XVI bo'lim — O'zbekiston Respublikasi aholisining umumiy daromadlari. – Toshkent, 2026.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar. – Toshkent, 2025.
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Statistika ma'lumotlar va rasmiy statistika ko'rsatkichlari. – Toshkent, 2025–2026.
4. World Bank. World Development Report 2024: The Middle-Income Trap. – Washington, DC: World Bank, 2024.
5. World Bank. Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance. – Washington, DC: World Bank, 2024.
6. OECD. Financing SMEs and Entrepreneurs 2024: An OECD Scoreboard. – Paris: OECD Publishing, 2024.
7. International Labour Organization. World Employment and Social Outlook: Trends 2024. – Geneva: ILO, 2024.
8. World Bank. Digital Progress and Trends Report 2023. – Washington, DC: World Bank, 2024.
9. Asian Development Bank. Asian Development Outlook 2025: Economic Trends and Prospects in Developing Asia. – Manila: ADB, 2025.